O'ZBEKISTON YOSHLAR ITTIFOQI

BIZ — KELAJAK BUNYODKORIMIZ!

# YOSHLAR OVOZI

Молодежь Узбекистана

№ 27 (16433)
2021-YIL
4-AVGUST,
CHORSHANBA

WWW.YOSHLAROVOZI.UZ
YOSHLAROVOZIUZ@MAIL.RU
@YOSHLAROVOZIUZ
@YOSHLAROVOZI

IJTIMOIY-SIYOSIY, IQTISODIY, ADABIY-BADIIY GAZETA

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining

QARORI

## OLIY TA'LIM TASHKILOTLARIDA TA'LIM OLISH IMKONIYATLARINI YANADA KENGAYTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RISIDA

Oliy ta'lim tashkilotlarida tahsil olish istagidagi yoshlarning ta'lim olishi uchun keng imkoniyatlar taqdim etish, to'lov-kontrakt asosida o'qiyotgan har bir talabaga bilim olish uchun qulay sharoitlar yaratish, yoshlarning ilm-fanga bo'lgan intilishlarini yanada rag'batlantirish va yoshlarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash maqsadida:

1. **2021/2022-o'quv yilidan boshlab** respublikadagi barcha oliy ta'lim tashkilotlari bakalavriatining kunduzgi ta'lim shaklida hamda magistratura bosqichida to'lov-kontrakt asosida tahsil olish uchun ta'lim krediti ajratishning yangi tizimi yo'lga qo'yilsin.

Belgilansinki:

tijorat banklari Moliya vazirligi tomonidan joylashtiriladigan resurslar hisobidan ta'lim kreditlarini **Markaziy bankning asosiy stavkasida** ajratadi;

ta'lim kreditining asosiy qismi talabaning rasmiy o'qish muddati tugagandan so'ng **yettinchi oydan boshlab 7 yil davomida qaytariladi**;

ta'lim kreditini rasmiylashtirishda va uning qaytarilishida talabaning doimiy daromad manbaiga ega bo'lgan oila a'zolari **birgalikda qarz oluvchi** sifatida qatnashishiga ruxsat etiladi;

**"Ijtimoiy himoya yagona reestri"ga** kirgan oilalar farzandlaridan ta'lim krediti uchun **garov va kafilliklar talab etilmaydi.**

2. Ta'lim kreditlari bo'yicha tijorat banklarini moliyaviy resurslar bilan ta'minlash uchun **Moliya vazirligi huzurida Ta'lim kreditini moliyalashtirish jamg'armasi** (keyingi o'rinlarda – Jamg'arma) tashkil etilsin.

Jamg'armaga Davlat byudjetidan **2021-yilda kamida 1 trillion so'm**, keyingi yillarda **haqiqiy talabdan kelib chiqib** mablag'lar ajratilsin.

Jamg'arma mablag'larini shakllantirish manbalari etib quyidagilar belgilansin:

**Davlat byudjetidan ajratiladigan** mablag'lar;

Jamg'arma tomonidan **avval ajratilgan resurslarning qaytishidan tushadigan mablag'lar** va ulardan olinadigan foiz to'lovlari;

Davomi 2-sahifada.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining

QARORI

## KAM TA'MINLANGAN VA IJTIMOIY HIMOYAGA MUHTOJ OILALAR FARZANDLARINI QO'LLAB-QUVVATLASHNING QO'SHIMCHA CHORA-TADBIRLARI TO'G'RISIDA

Aholini ijtimoiy himoya qilishga qaratilgan tizimli ishlarni davom ettirish hamda moddiy yordam va ko'makka muhtoj oilalarning farzandlarini kiyim-bosh to'plamlari, maktab formasi va o'quv qurollari bilan ta'minlash xarajatlarini byudjet mablag'lari hisobidan qoplash maqsadida:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-iyuldagi "Yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va ularning ijtimoiy faolligini yanada oshirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF–6260-son Farmonida **"Temir daftar"ga kiritilgan oilalarning 18 yoshgacha bo'lgan har bir farzandi uchun** Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan **500 ming so'm** miqdorida bir martalik moddiy yordam ko'rsatilishi belgilanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

**2021-yilning avgust oyida** aholining quyidagi qatlamlariga **500 ming so'm miqdorida bir martalik moddiy yordam** (keyingi o'rinlarda – bir martalik moddiy yordam) **ko'rsatilsin**:

**boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi** yoki **nafaqasini** oluvchi oilalarning 18 yoshga to'lmagan farzandlariga;

Davomi 2-sahifada.

## TEST SINOVLARIGA OZ FURSAT QOLDI



### ABITURIYENTLAR SINOVGA SHAY

Abituriyentlik davrimda ustozim bir gapni takrorlardi: "Kim abituriyentlikda bor kuchi bilan harakat qilgan bo'lsa, avgustda hosilini yig'adi". Darhaqiqat, avgust abituriyentlar uchun hayajonga to'la, go'yoki, hayot-mamot masalasi hal bo'ladigan lahzalardir.

Abituriyentlikdagi uyqusiz tunlarga avgust oyidagi imtihonlar barham beradi. O'tgan yil pandemiya sabab imtihonlar sentabr oyida o'tkazilgan bo'lsa, bu yil odatdagi tartibda, ya'ni avgust oyida o'tkazilmoqda. Ayni kunlarda Davlat test markazi tomonidan Abituriyent ruxsatnomalarini "online" berish yo'lga qo'yilgan. Abituriyentlar my.dtm.uz saytiga kirib, shaxsiy kabinetdan o'z ruxsatnomasini yuklab olishi mumkin. Ruxsatnomada abituriyentning test topshiradigan joyi va sanasi yozilgan bo'ladi.

Test sinovlari tashkil etilayotgan o'quv yilidan avvalgi yillarda ta'lim muassasalarini tugatgan abituriyentlar sinovlarda ishtirok etish uchun bazaviy hisoblash miqdorining yarim baravari (122500 so'm) miqdorida to'lovni amalga oshirdi. Ammo ma'lum sababga ko'ra to'lovni qabulning oxirgi kuni, ya'ni 22-iyulgacha to'lay olmagan abituriyentlar test sinovida ishtirok eta olmaydi.

### BU YIL QANDAY YANGILIKLAR BOR?

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining joriy yil 13-iyuldagi farmoniga ko'ra, "Temir daftar"dagi oilalarning farzandlari kontraktga o'qishga kirsa, 1-kursda kontrakt to'lamasligi belgilab qo'yildi. Ularning kontrakt summalari Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan qoplab beriladi.

Davomi 2-sahifada.




## 2-oltin medal

***3-avgust kuni Tokio-2020 Olimpiadasining o'n birinchi kuni ortda qoldi. O'zbekistonlik sportchilar shu kunga qadar 2 ta oltin va 1 ta bronza medali jamg'argan holda musobaqaning 28-pog'onasini band qilib turibdi.***

5 nafar sportchimiz Olimpiadaning o'n birinchi kunini medalsiz yakunlagan bo'lsa-da, og'ir atletika bo'yicha 109 kg vazn toifasida Akbar Jo'rayev dast ko'tarishda 193 kg ni , siltab ko'tarishda 237 kg og'irlikni bo'ysundirib, Olimpiada rekordini o'rnatdi va O'zbekistonga yana bir oltin medalni hadya etdi.

Shuningdek, kecha erta tongdan boshlangan musobaqalarda hamyurtimiz Ruslan Qurbonov yengil atletikaning uch hatlab sakrash yo'nalishi bo'yicha Vatanimiz sharafini himoya qildi. Biroq berilgan imkoniyatlardan samarali foydalana olmagan Rustam Qurbonov musobaqadagi ishtirokini yakunladi.

-52 kg vazn toifasida filippinlik bokschi Karlo Paalamga qarshi ringga ko'tarilgan Shahobiddin Zoirov hamda 60 kg vazn toifasida braziliyalik bokschi Beatriz Ferreyra bilan jang qilgan Rayhona Qodirova ham mag'lubiyatni qabul qilib oldi. Shahobiddin Zoirov birinchi raundda hakamlar tomonidan bir ovozdan g'olib deb topildi. Ikkinchi raundda esa hamyurtimiz qoshi yorilganligi sabab jang to'xtatildi va texnik mag'lubiyatga uchradi.

Navbatdagi jangda Elnur Abduraimov armanistonlik raqibiga deyarli qarshilik ko'rsata olmadi va Olimpiadani mag'lubiyat bilan yakunladi.

Yunon-rum kurashi bo'yicha Rustam Assakalov -87 kg vazn toifasida xorvatiyalik Ivan Xuklek bilan chorak final bahsini o'tkazdi. Bahsda xorvatiyalik kurashchi 4:1 hisobida g'alaba qozondi.

**Qirmizoy HAKIMOVA**

### O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining

### QARORI

# OLIY TA'LIM TASHKILOTLARIDA TA'LIM OLISH IMKONIYATLARINI YANADA KENGAYTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA

Davomi. Boshlanishi 1-sahifada.

Jamg'armaning **vaqtincha bo'sh mablag'larini** tijorat banklariga joylashtirish hisobiga foizli tushumlar;

**Xalqaro moliya institutlarining imtiyozli kreditlari, homiylik, grant mablag'lari** va qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar.

3. Belgilab qo'yilsinki:

Jamg'arma **yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan** holda Moliya vazirligida alohida ochiladigan shaxsiy g'azna hisobvarag'i shaklida tashkil etiladi;

Jamg'arma faoliyati Moliya vazirligi markaziy apparatiga ajratiladigan **3 ta shtat birligidan iborat bo'linma** tomonidan amalga oshiriladi;

Jamg'arma mablag'lari hisobiga tijorat banklarining so'rovlariga asosan ularga **Markaziy bankning asosiy stavkasida** ta'lim krediti ajratish uchun mazkur stavkadan **4 foiz bandga past bo'lgan stavkada** resurslar ajratiladi;

Markaziy bankning asosiy stavkasi pasaytirilgan taqdirda, resurs mablag'lari va ta'lim krediti bo'yicha **foiz stavkasi mutanosib ravishda pasaytiriladi**, oshirilgan taqdirda esa **o'zgarishsiz qoladi**.

4. Vazirlar Mahkamasi **ikki hafta muddatda** quyidagilarni nazarda tutuvchi **Moliya vazirligi huzurida Ta'lim kreditini moliyalashtirish jamg'armasi hisobidan oliy ta'lim tashkilotlarida to'lov-kontrakt asosida o'qish uchun ta'lim kreditlarini ajratish to'g'risidagi** nizomni tasdiqlasin:

ta'lim kreditlari bo'yicha yuzaga keladigan kredit tavakkalchiligini **Moliya vazirligi va tijorat banklari o'rtasida taqsimlash** hamda Jamg'armadan ajratilgan mablag'larning bir qismini tijorat banklari tomonidan **garov depoziti sifatida qabul qilish**;

respublikadagi **davlat oliy ta'lim muassasalari, xususiy va xorijiy oliy ta'lim tashkilotlari** hamda ularning filiallari talabalariga kontrakt to'lovlari uchun kredit ajratish;

Jamg'arma tomonidan ta'lim kreditlari uchun mablag'lar ajratishda tijorat banklariga qo'yiladigan **muvofiqlik mezonlarini o'rnatish**.

5. Moliya vazirligi Jamg'armaga **2021-yilda** mablag'larning Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalari mablag'lari, byudjetni qo'llab-quvvatlash uchun jalb qilinadigan xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumat moliya tashkilotlarining kreditlari, suveren xalqaro obligatsiyalarni chiqarish va qonunchilik hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan ajratilishini, **2022-yildan boshlab** esa Davlat byudjeti parametrlarida nazarda tutilishini ta'minlasin.

6. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda bir oy muddatda qonunchilik hujjatlariga ushbu qarordan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritsin.

7. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosari B.A.Musayev, oliy va o'rta maxsus ta'lim vaziri A.X.Toshkulov hamda moliya vaziri T.A.Ishmetov zimmasiga yuklansin.

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti** **Sh.MIRZIYOYEV**

*Toshkent shahri,*
*2021-yil 30-iyul*

### O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining

### QARORI

# KAM TA'MINLANGAN VA IJTIMOIY HIMOYAGA MUHTOJ OILALAR FARZANDLARINI QO‘LLAB-QUVVATLASHNING QO‘SHIMCHA CHORA-TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA

Davomi. Boshlanishi 1-sahifada.

**nogironligi bo'lgan 18 yoshga to'lmagan** bolalarga.

**2.** Mazkur qarorning 1-bandida nazarda tutilgan tadbirlarni moliyalashtirish manbalari etib quyidagilar belgilansin:

"Temir daftar"ga kiritilgan oilalarning 18 yoshgacha bo'lgan farzandlariga bir martalik moddiy yordam pullarini to'lash xarajatlari – **respublika byudjeti mablag'lari**;

byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi va boshqa organlardan boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi yoki nafaqasini oluvchi oilalarning 18 yoshga to'lmagan farzandlariga, shuningdek, nogironligi bo'lgan 18 yoshga to'lmagan bolalarga bir martalik moddiy yordam pullarini to'lash xarajatlari – **byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi hamda vazirlik va idoralarga ajratilgan byudjet mablag'lari**.

**3.** Quyidagilar bir martalik moddiy yordamning ushbu qarorga muvofiq maqsadli va manzilli yetkazilishini ta'minlash yuzasidan **shaxsan mas'ul etib belgilansin**:

**Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar, Toshkent shahar, tuman (shahar) hokimlari, sektor rahbarlari hamda Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligining hududiy bo'linmalari rahbarlari** – "Temir daftar"ga kiritilgan oilalarning 18 yoshgacha bo'lgan farzandlari sonidan kelib chiqib, to'lov vedomostlari shakllantirilishi hamda tuman (shahar) mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash bo'limlari orqali ularga moddiy yordam pullarining joriy yil **25-avgustga qadar** manzilli yetkazilishini ta'minlash va nazorat qilish bo'yicha;

**byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi, Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Milliy gvardiya, Davlat xavfsizlik xizmati, Davlat bojxona qo'mitasi, sud hokimiyatining oliy organlaridan** – tegishliligi bo'yicha boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi va nafaqasi oluvchi oilalarning 18 yoshga to'lmagan farzandlariga, shuningdek, nogironligi bo'lgan 18 yoshga to'lmagan bolalarga bir martalik moddiy yordam pullarining pensiyalarni (nafaqalarni) to'lash uchun **belgilangan muddatlarda** va manzilli yetkazilishini tashkil etish bo'yicha;

**Moliya vazirligi** – zarur mablag'larning O'zbekiston Respublikasi respublika byudjeti va byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasidan **o'z vaqtida** ajratilishi bo'yicha.

**4.** Moliya vazirligi O'zbekiston Milliy axborot agentligi, O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi bilan birgalikda ushbu qaror **maqsadi va vazifalarini ommaviy axborot vositalarida va Internet tarmog'ida keng yoritish ishlarini tashkil qilsin**.

**5.** Mazkur qarorning ijrosini samarali tashkil etishga mas'ul va shaxsiy javobgar etib moliya vaziri **T.A.Ishmetov** belgilansin.

Qaror ijrosini muhokama qilib borish, ijro uchun mas'ul tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosari **J.A.Qo'chqorov** zimmasiga yuklansin.

Amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijadorligi yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga **2021-yil 1-oktabrga** qadar axborot berilsin.

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti** **Sh.MIRZIYOYEV**

*Toshkent shahri,*
*2021-yil 30-iyul*

# TEST SINOVLARIGA OZ FURSAT QOLDI

Davomi. Boshlanishi 1-sahifada.

Bundan tashqari, 5 yil stajga ega bo'lgan xodimlarda tavsiyanoma asosida sirtqi va kechki ta'lim shakli bo'yicha o'qishga kirish imkoniyati paydo bo'ldi. Unga ko'ra xodim sirtqi ta'lim shakli uchun 5 yil, kechki ta'lim shakli uchun 4 yil stajga ega bo'lishi kerak. Ular test sinovisiz tavsiyanoma asosida suhbat bilan qabul qilinadi. Bir tashkilot 100 tagacha xodimga tavsiyanoma berishi mumkin. Agar xodim suhbatdan o'tib, o'qishga qabul qilinsa, kontrakt summasi ishlayotgan tashkiloti tomonidan to'lab beriladi.

Sport musobaqalari g'oliblariga istisno tariqasida imtiyoz belgilandi. Ya'ni sport turlari hamda paralimpia sport turlari bo'yicha Osiyo va respublika chempionatlarida oxirgi uch yilda g'olib va sovrindor bo'lgan sportchi-o'quvchilarni qo'llab-quvvatlash maqsadida "Sport faoliyati" va "Jismoniy madaniyat" bakalavriat ta'lim yo'nalishlari uchun umumiy jismoniy tayyorgarlikni hisobga olgan holda, 3 ta majburiy fan, ona tili va boshqa tillar, matematika va O'zbekiston tarixi fanlaridan ozod etilib, maksimal ball beriladi. Ular umumiy tanlovdan tashqari alohida kvota bilan davlat granti va to'lov-kontrakt asosida talabalikka qabul qilinadi. Talabalikka qabul qilish uchun minimal o'tish bali Davlat komissiyasining qaroriga muvofiq belgilanadi.

**2021-2022-o'quv yilida oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga kirish test sinovlarida qo'llaniladigan test topshiriqlarining bo'limlari bo'yicha o'rtacha taqsimoti:**

**Majburiy fanlar:**

1. Ona tili
– Orfografiya va punktuatsiya – 40%
– Leksikologiya, uslubiyat – 40%
– Grammatika – 20%
2. Ona tili (rus)
– Fonetika – 10%
– Leksika – 10%
– Grammatika – 40%
– Orfografiya – 40%
3. Ona tili(qoraqalpoq)
– Fonetka – 10%
– Leksika – 20%
– Grammatika – 40%
– Orfografiya – 30%
4. Matematika
– Sonlar va ular ustida amallar – 40%
– Foiz, proporsiya va tenglama – 30%
– Geometriya – 30%
5. O'zbekiston tarixi
– Qadimgi va o'rta asrlar tarixi – 35-45%
– XVI-XX asr boshlaridagi tarixiy davr – 35-45%
– Sovetlar davri va mustaqillik davri tarixi – 20-25%

**Mutaxassislik fanlari:**

1. Ona tili va adabiyot (o'zbek, rus va qoraqalpoq)
– Ona tili – 60%
– Adabiyot – 40%
2. Matematika
– Sonlar va ular ustida amallar – 25%
– Funksiya va algebrik ifodalar – 35%
– Hosila, integral va ularning tadbiqlari – 10%
– Geometriya – 30%
3. Tarix
– Siyosiy tarix – 50-60%
– Ijtimoiy-iqtisodiy tarix – 10-20%
– Madaniy hayot – 10-15%
– Amaliy topshiriqlar – 20-25%
4. Fizika
– Mexanika – 35%
– Molekulyar fizika va termodinamika(mantiqiy, laboratoriya ishlariga oid) – 25%
– Elektromagnitizm – 30%
– Atom va yadro fizikasi(Optika, nisbiylik nazariyasi) – 10%
5. Biologiya
– Botanika, zoologiya, odam va uning salomatligi – 40%
– Sitologiya, genetika, seleksiya, gen va hujayra biotexnologiyasi – 30%
– Evolutsion ta'limot, ekologiya va biosfera asoslari – 30%
6. Kimyo
– Umumiy kimyo – 40%
– Noorganik kimyo – 25%
– Organik kimyo – 15%
– Yuqoridagi bo'limlar asosida topshiriqlar – 20%
7. Geografiya
– Tabiiy geografiya – 40%
– Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya – 40%
– Amaliy topshiriqlar – 20%
8. Chet tili(ingliz, nemis, fransuz)
– Grammatika – 45%
– O'qib tushunish – 45%
– Leksika – 10%

Bundan tashqari, Xalqaro va milliy sertifikati bor abituriyentlar testlar blogidagi sertifikati bor fanlardan ozod etiladi, qolgan fanlardan test sinovida qatnashadi.

Test kunlari yaqinlashgan sayin abituriyentlardagi hayajon yana ortadi. Xayolida esa bir xil fikr: "Testdan o'ta olamanmi?". Quyida ba'zi abituriyentlarning test oldi fikrlarini ham havola etamiz. Ularga "Imtihon oldidan nimani his qilyapsiz?" degan savol bilan yuzlandik.

**Toshkent davlat sharqshunoslik instituti "Xitoy tillari" fakultetiga hujjat topshirgan Gulida Abduraimova:** "Bu yil ikkinchi bor hujjat topshirayotganim uchun menda unchalik hayajon yo'q. Ammo biroz qo'rquv bor, chunki imtihondan yiqilib, bir yil repititorda o'qidim. Ota-onam sezdirmasa-da, ularning qiynalganini ko'rdim. Bu qiyinchilikni xursandchilikka aylantirish uchun ham o'qishga kirishim kerak!".

**Toshkent pediatriya tibbiyot institutining "Davolash ishi" yo'nalishiga hujjatlarini topshirgan Muslimaxon Abdullayeva:** "Men ilk bor test topshiraman, balki shungami hayajon kuchli, ammo olgan bilimlarimga ishonaman. Talabalik baxtiga, albatta, erishaman!".

Abituriyentlikdagi hayajonlar asta-sekin ortda qolib, o'rnini talabalikning baxtli lahzalari egallasin. Barcha bilimli abituriyentlarga omad tilab qolamiz!

**Mashhura NASRIDDINOVA**

DOLZARB MAVZU

# YOSHLAR TAQDIRI O‘YINCHOQ EMAS



## yoxud yoshlarni “Yoshlar daftari”dan chiqarishdagi “o‘yin”lar xususida

***2021-yil – “Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili” Davlat dasturi ijrosini ta’minlash maqsadida Yoshlar ishlari agentligi hamkor vazirlik hamda idoralar bilan yoshlarni tadbirkorlikka jalb qilish, bandligini ta’minlash, talab yuqori bo‘lgan kasb-hunarlarga o‘qitish bo‘yicha istiqbolli loyihalarni hayotga tatbiq etayotir. Ammo afsuski...***

### SOXTA MA’LUMOTLAR BILAN XALQNI ALDAMANG!

Bugungi kunda mahallalar kesimida shakllantirilgan “Yoshlar daftari” ishsiz va muhtoj yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlashda muhim o‘rin tutmoqda. Yangi tizim asosida olib borilgan chora-tadbirlar natijasida shu kungacha 841 ming 147 nafar yoshning bandligi ta’minlangan.

Xo‘sh, vaziyat chindan ham shundaymi? “Yoshlar daftari”ga kiritilgan yoshlar uchun zarur ish o‘rinlari haqiqatdan ham tashkil qilinyaptimi? Shu kabi masalalarni o‘rganish maqsadida Yoshlar ishlari agentligi “Yoshlar daftari”ga kiritilgan yoshlar muammolarining hal etilishi yuzasidan viloyatlarda monitoring ishlarini yo‘lga qo‘ydi.

Jumladan, Agentlikning Samarqand viloyati boshqarmasi ishchi guruhi Toyloq tumanidagi birinchi va uchinchi sektorlarda “Yoshlar daftari” platformasiga kiritilgan yoshlar bilan olib borilayotgan ishlar yuzasidan monitoring olib bordi.

O‘rganish natijasida oydinlashdiki, mazkur sektorlar mas’ullari “Yoshlar daftari”ga kiritilgan ayrim yoshlarning keyingi taqdiri, xususan, ularning bandligi masalalarini o‘z holiga tashlab qo‘ygan. Jumladan, hisobotlarda bandligi ta’minlangani, subsidiya ajratilgani va ijtimoiy ko‘mak berilgani qayd etilib, daftardan chiqarilgan yoshlarning aksariyat ma’lumotlari noto‘g‘ri bo‘lib chiqdi. Hatto kiritilgan telefon raqamlari umuman mavjud emasligi yoki boshqa viloyatlarga tegishli ekani agentlik mutaxassislarini taassufga soldi!

Yoshlar taqdiri haqida qayg‘urish, ularni real hayotda ishli qilish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilayotgan bir paytda bu kabi ko‘zbo‘yamachilikdan kimga foyda-yu, kimga zarar?

Mavzuni agentlikning Samarqand shahar bo‘limi ishchi guruhining shahardagi 4-sektor hududida “Yoshlar daftari”dagi yoshlar muammolarining hal etilishi yuzasidan olib borgan o‘rganish natijalari bilan davom ettiramiz.

O‘rganishlar davomida aniqlangan muammolar dilni xira qiladi. Aniqlanishicha, yil boshidan buyon ushbu sektor hududida jami 2146 nafar muammoli yosh “Yoshlar daftari”ga kiritilgan bo‘lib, shu yilning 26-iyul holatiga ulardan 2111 nafari daftardan chiqarilgan. 35 nafari esa daftarda turgani ma’lum bo‘lgan.

Tanlov asosida “Gulobod” mahallasida istiqomat qiluvchi G.Luqmonova, X.Tursunova, D.Xatamova, B.Baxrilloyev, D.Siddiqova, Sh.Sultonov, M.O‘ktamova, D.Saitov, O.Shomurodov, B.Tilavov, shuningdek, “Yoshlar” mahallasidan A.Abdunaimov, U.Abdusalyamov, J.Akilov, A.Aralev, R.A’zamov, D.Baxrulloyev, M.Berdiyev, I.Djabarov, A.G‘ulomov, B.Gafarova kabi 20 nafar yoshning ayni paytdagi ahvoli o‘rganildi. Xizmat ko‘rsatish faoliyatini yo‘lga qo‘yish yoki boshqa tirikchilik manbasini yaratish uchun asbob-uskuna tarqatish orqali bu yoshlarning maxsus daftardan chiqarilgani platformada ko‘rsatilgan bo‘lsa-da, haligacha ularga asbob-uskunalar berilmagan. Bu kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha sektor mas’ul xodimlariga tegishli ko‘rsatmalar berilgan.

### YOSHLARDAFTARI.UZ PORTALI ISHLAMOQDA

— Joylarda o‘tkaziladigan ochiq muloqotlarda juda ko‘p yoshlar “Yoshlar daftari”dan chiqarishdagi muammolar va ko‘zbo‘yamachiliklar haqida bizga ma’lumot berishadi, — deydi Yoshlar ishlari agentligi axborot xizmati rahbari Nodir Abduqodirov. — Bunday soxtakorlik holatlarini aniqlash va holatni joyiga qo‘yish uchun jamoamiz bilan respublikada o‘rganish ishlarini boshladik. Misol uchun, Chirchiqda Vahobjon Abdullayev ham “Yoshlar daftari”da turgan, 2-guruh nogironi. U zamonaviy kasblarni o‘rganish uchun kompyuter so‘ragan. Lekin kompyuter hali berilmasdan turib, yolg‘on ma’lumotlar asosida bu yigit daftardan chiqarilgan. Unga shu kungacha hech narsa berilmagan. Bu singari holatlar bir nechta va ular videotasvirga olinib, jamoatchilikka oshkor qilinmoqda. Ko‘z bo‘yamachiliklar, yolg‘on hisobotbozlikning oldini olish uchun tizimni raqamlashtiryapmiz. Yoshlardaftari.uz elektron platformasi va 24 soat davomida ishlaydigan 1093 qisqa raqami ishga tushirilgan. Bu tizim endi yanada qattiq nazorat qilinadi. Bundan keyin ham jamoamiz bilan hududlarga, chekka-chekka joylarga chiqib, vaziyatni o‘rganamiz, tahlil qilamiz va doimiy ravishda jamoatchilik nazorati uchun havola qilib boramiz.

Aniqlangan kamchiliklar yuzasidan joyida tushuntirish ishlari olib borilmoqda. Bu kabi ko‘zbo‘yamachilik, yolg‘on ma’lumotlar har bir hududda topilishi mumkin. Umid qilamizki, bu kabi holatlar yaqin kunlarda bartaraf etiladi. Shunday ekan biz bu mavzuga yana qaytamiz!

**Iqbol PARDAYEVA**

INTERVYU



Nuriddin SAMANDAROV: Andijon davlat universiteti san’atshunoslik fakulteti an’anaviy vokal yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

# Maqom mayestrosi

— O‘sha paytlarda yo to‘qqiz yo o‘n yoshda edim. Bir kuni uyda ayam televizorda konsert ko‘rayotganlariga ko‘zim tushdi. O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist, Nihol mukofoti sovrindori, Sharq taronalari g‘olibi Dilnura Qodirjonovaning 2006- yilda Istiqlol san’at saroyidagi konsertida Abduhoshim Ismoilovning g‘ijjak chalayotganini ko‘rdim-u yoqib qolgan.

Keyin uyda qog‘ozlardan, yog‘ochlardan skripka yasab, o‘zimcha chalib yurardim. Ota-onam mendagi qiziqishni ko‘rib Andijon viloyati 2-son bolalar musiqa va san’at maktabiga olib borishdi. Birinchi ustozim Rishad Mindubayev o‘z bilimlarini ayamay, bor mahoratini men bilan bo‘lishgan. Oradan uch oy o‘tib ota-onam ilk skripkamni olib berishdi.

San’at sohasiga kirib kelishimga sababchi insonlar – ota-onamdir. Ular menga ishonishadi, doim oltin duolari bilan qo‘llab-quvvatlashadi. Dadam mening kuchli motivatorim va tanqidchim.

Men 2017-yil Andijon san’at kollejini tamomladim va hozir Andijon davlat universiteti 2-bosqich talabasiman. Yoshligimdan turli tanlovlarda qatnashib kelmoqdaman. 2011-yilda o‘tkazilgan “Yangi avlod” tanlovining respublika bosqichida 2-o‘rin, 2017-yil “Sozlar navosi” tanlovining respublika bosqichida oliy o‘rin, “Yosh ijrochilar” kabi respublika tanlovlarida 1-o‘ringa loyiq ko‘rildim. Xalqaro tanlovlar laureati bo‘ldim.

Va “Yunus Rajabiy” nomidagi respublika tanlovida faxrli o‘rinlardan biriga loyiq topilganim men uchun unutilmas natijadir. Tanlov eng mahoratli cholg‘uchilar ishtirokida o‘tgan edi. Ulardan ko‘p narsalarni o‘rgandim, desam mubolag‘a bo‘lmaydi. “Yunus Rajabiy” nomidagi tanlovning respublika bosqichi g‘oliblarini taqdirlash marosimida (men havas bilan san’at sohasiga kirib kelishimga sababchi inson) Abduhoshim Ismoilovning o‘z qo‘llaridan mukofotni qabul qilib oldim. Shunda u kishi menga shunday savol berdilar:

— Necha yoshingda oldimga onang bilan kelgan eding? Yodingdami?

— 11 yoshimda borgandim.

— Aytgan so‘zlarim yodingdami?

— Qayerdan ekanligimni so‘ragan edingiz va andijonlik ekanligimni bilib, sizni oldingizga kelishdan oldin siz ustoz deb biladigan andijonlik G‘ulomjon Xojiqulov bilan ko‘rishib, ularning duolarini olishimni aytgan edingiz...

Buni qarangki, oradan o‘n bir yil o‘tib, yana ustozimning e’tiroflariga sazovor bo‘ldim. Bu men uchun katta baxt. Shu sohada faoliyat olib bormoqchi bo‘lgan yoshlarga ayta olamanki, ota-ona duosi va mustahkam ishonch siz bilan ekan muvaffaqiyatlar faqat siz bilan bo‘ladi.

**O‘zJOKU talabasi Sevara BAXTIYOROVA yozib oldi.**




# Buxoro davlat tibbiyot instituti jamoasi

Butun O‘zbekiston xalqini yaqinlashib kelayotgan eng ulug‘, eng aziz ayyom – Mustaqillik kuni bilan muborakbod etadi. Siz, azizlarga sihat-salomatlik, xonadoningizga fayz-u baraka, ish faoliyatingizda muvaffaqiyatlar yor bo‘lsin!



R

НАСТАВНИК МОЛОДЕЖИ

***Когда у Толибжона-бобо, разведчика Второй мировой, кавалера ордена Красной Звезды, родился внук, сомнений в выборе имени не было. Подняв глаза к ночному небу, сказал: «Назовем Улугбеком. В честь великого ученого. Пусть придут к нему здоровье и сила, ум и смекалка».***





# В ФАРВАТЕРЕ ПАТРИОТИЗМА

«Сработало» имя. Любознательным рос парнишка, смышленым, спортивным, самым дисциплинированным ребенком в семье. В 12 лет увлекся легкой атлетикой, быстро достиг хороших результатов. Сначала об Улугбеке Мамадалиеве заговорили в родном Яйпане, потом в Ферганской долине: шутка ли, земляк – чемпион СССР в беге на 3000 метров среди юношей, участник чемпионата Европы. Не только спортсмен, но и отличник учебы: окончил школу с медалью. Кстати, с бегом он не расстается и сейчас, являясь исполнительным директором столичной Дирекции по проведению марафонов и пробегов.

Срочная служба, служба по контракту (тогда еще прапорщик), поступление в Академию МВД Республики Узбекистан и... непреодолимая тяга к науке. Подполковник Мамадалиев – кандидат юридических наук, доцент, автор ряда учебников, учебных пособий по подготовке офицеров системы МВД и монографии. В настоящее время начальник управления военных кадров Министерства обороны, в честь Дня защитников Родины за безупречную службу удостоенный медали «Содик хизматлари учун».

В горячую пору (для поступающих в высшие образовательные учреждения август – месяц испытаний и надежд – приближается катастрофически быстро) офицер с огромным опытом говорит о том, что волнует желающих связать судьбу с армией:

– Динамичные процессы, происходящие в Узбекистане, повлияли и на качество подготовки военных кадров. Прием в ВВОУ вроде бы организационно упрощается, однако требования к поступающим предъявляются высокие. Важна грамотная информация о высших военно-образовательных учреждениях в школах, лицеях, колледжах. Иногда за стремлением поступить в ВВОУ скрывается недопонимание сути профессии Родину защищать. Внешняя сторона (красивая форма, выправка, уважение в обществе) для некоторых перечеркивает главное: курсантами становятся истинные патриоты, которых не пугают трудности службы. Юноши, готовые отдать жизнь ради своего народа.

Подполковник Мамадалиев заострил внимание на том, что подготовка будущих офицеров начинается задолго до экзаменов, причем не за год или два. Здоровый образ жизни, занятия спортом – главные факторы, обеспечивающие успешное прохождение медицинской комиссии. Помогут чтение соответствующей литературы, просмотр специальных телепередач, встречи поколений, где ветераны Вооруженных сил Узбекистана делятся опытом. Ведь абитуриент должен ответить еще и на вопросы психолога в тестовом режиме, что определяет его профпригодность. То есть допуск к обычным тестовым испытаниям по общеобразовательным предметам зависит от предварительных этапов, где в полной мере осуществляется прозрачность. Не пробежал, не подтянулся на перекладине, психологически не готов к профессии – результаты налицо.

– Вектор политики нашего государства направлен на молодежь, свежие, креативные созидательные силы, – продолжает офицер, – и основной фарватер прогресса – патриотическое воспитание. Любовь к Родине двигает и науку, и экономику, определяет безопасность границ. По роду деятельности побывал во многих странах: престиж военной службы остается на высоте. В планах – создание специальных классов в школах для целенаправленной подготовки. Пока курируем около 300 школ. На этой цифре не остановимся. Дисциплина и работа над собой – рычаги формирования гармонично развитой личности.

Все чаще желание служить изъявляют девушки. Мы изучили мировой опыт и делаем первые шаги в этом направлении. Таким шагом стала Высшая военно-медицинская академия. Первый набор осуществляется в этом году. Скорее всего, обучение девушек будет поэтапным процессом по специализации (воспитатели по направлениям образования, IT-сфера и так далее). И запустится он после создания необходимой платформы женского военного образования.

Любой офицер Вооруженных сил Узбекистана – пропагандист наследия великих предков. Улугбек Мамадалиев был командирован во Францию в том числе и для изучения материалов, связанных с родной историей. На встречах с воспитанниками «Темурбеклар мактаби» поднимает эту тему и наш герой. Имя обязывает с особым почтением вспоминать Мирзо Улугбека. Перед Днем памяти и почестей в Парке Победы нашел время пообщаться с группой детского сада.

Такой подполковник Мамадалиев на службе: выполняет поставленные задачи, подает пример молодежи, делится опытом, пропагандирует историческое наследие Узбекистана. Дома его нередко можно застать с томиком Бальзака, за приготовлением своего фирменного плова или в садике с кетменем в руках. А еще он любит пробежки с четвероногими друзьями – тремя немецкими овчарками – по берегу речки. Тогда усталость как рукой снимает и офицер готов к воплощению новых идей.

**Ольга ВОЛОДИНА**

## Новости

### «Путешествую без COVID-19»

***Лаборатории Узбекистана присоединились к приложению, использование которого станет обязательным для въезда в Россию с территории страны с 1 сентября.***




Сегодня сдать ПЦР-тест можно уже в 87 пунктах забора биоматериала. С полным перечнем пользователи могут ознакомиться в приложении.

Сегодня «Путешествую без COVID-19» активно используется для въезда в Россию из стран – членов Евразийского экономического союза: Армении, Беларуси, Казахстана и Кыргызстана. Пользователи скачали приложение более 530 тысяч раз и получили через него свыше 600 тысяч результатов ПЦР-тестов.

Задача программы – обеспечить свободное и безопасное перемещение граждан между странами в условиях пандемии.

### Растим таланты

***В Нукусе создадут Академию молодых ученых и Технопарк молодежи для поддержки начинающий стартаперов и исследователей.***



Соответствующее постановление «О мерах по реализации специальной резолюции Генеральной Ассамблеи Организации Объединенных Наций от 18 мая 2021 года «Об объявлении региона Приаралья зоной экологических инноваций и технологий» подписал Президент Шавкат Мирзиёев.

Согласно документу, в данных учреждениях будет открыта лаборатория с генетическим банком семян растений, бизнес-акселератор и учебный центр при Международном инновационном центре Приаралья. Также планируется ввести электронное картирование и создать базы данных объектов растительного и животного мира, находящихся под угрозой исчезновения.

### Кредит – это удобно

***С нового учебного года студенты бакалавриата и магистратуры смогут взять образовательный кредит по основной ставке Центрального банка (сейчас – 14%). Основная часть кредита будет погашаться после окончания обучения в течение семи лет.***



Это предусмотрено постановлением «О мерах по дальнейшему расширению доступа к образованию в высших образовательных организациях».

При оформлении и погашении образовательного кредита разрешается участие членов семьи студента, имеющих постоянный доход, в качестве созаемщиков. Детям из семей, включенных в «Единый реестр социальной защиты», залог и поручительство не требуются.

Кредиты смогут получить студенты как государственных вузов, так и частных и зарубежных высших образовательных организаций и их филиалов.

### Звездный турнир

***Шахматный турнир Zakovat-Gambit с призовым фондом в 610 миллионов сумов пройдет 10–15 августа с участием мировых звезд интеллектуальной игры.***



Среди участников мероприятия – чемпионы мира по шахматам Вишванатан Ананд и Рустам Касымджанов, Тимур Гареев, который в 2016 году установил мировой шахматный рекорд по наибольшему числу партий в сеансе игры вслепую (48 игр). Приедет Гулрухбегим Тохирджонова, которая в 2018-м заняла второе место на чемпионате мира по шахматам среди девушек до 20 лет, а в 2019-м вошла в топ-30 лучших шахматисток мира.

Ожидается визит Юдит Полгар – единственной женщины-гроссмейстера, которой удалось войти в «мужскую» десятку сильнейших шахматистов мира, а также единственной шахматистки, достигшей супергроссмейстерского рейтинга.

# ДЫХАНИЕ ПАРЛАМЕНТАРИЗМА





## КАДРОВЫЙ РЕЗЕРВ

***Когда возникает новая структура, к ней проявляют повышенный интерес: какой она будет, сумеет ли достичь поставленных целей? Эта организация еще слишком молода (ей всего год!), однако успела заявить о себе.***

***Сегодня тема нашей беседы с Акбаршохом ТЕШАБОЕВЫМ, заместителем председателя Молодежного парламента, – объединение инициативных юношей и девушек при Законодательной палате Олий Мажлиса Республики Узбекистан.***

**– Любое новшество диктуется жизнью. Наступило время молодежных парламентов. Какие первостепенные задачи ставились перед организацией, которая при результативной работе может сыграть роль мощного кадрового резерва?**

– Эффективная реализация государственной молодежной политики предполагает широкий спектр возможностей. Помните слова Президента Шавката Мирзиёева: «Уверен, что в условиях Нового Узбекистана, как представители молодого поколения, воспитанного в соответствии с требованиями современного развития, вы все оцените возможности, созданные нашим государством и народом, и более эффективно их используете». Глава государства неоднократно подчеркивал созидательную миссию молодежи – движущей силы Третьего Ренессанса во всех сферах жизнедеятельности.

Признак последних лет – расширение участия юношей и девушек в законотворческой деятельности. В частности, 29 июня 2020 года созданы молодежные парламенты при Законодательной палате и Сенате Олий Мажлиса Республики Узбекистан. Призваны приобщить подрастающее поколение к деятельности парламента, вовлечь в законотворческий процесс, научить выдвигать обоснованные предложения по волнующим молодежь вопросам. Побуждают широко пропагандировать принимаемые законы в своей среде, участвовать в жизни государства и общества, формируясь как активный политический слой.

Создание таких парламентов служит обеспечению эффективности системы по защите прав и законных интересов молодежи, дальнейшему укреплению ее правосознания и политической культуры.



**– Молодежный парламент – структура с определенным статусом и полномочиями, подотчетностью в работе...**

– Ее деятельность регулируется положением «О Молодежном парламенте при Законодательной палате Олий Мажлиса Республики Узбекистан», утвержденным протоколом Республиканской комиссии от 20 июля 2020 года.

В соответствии с этим документом Молодежный парламент при Законодательной палате – консультативный орган без статуса юридического лица. Подотчетен Законодательной палате, соответствующим политическим партиям и Союзу молодежи Узбекистана.

Срок полномочий – два года. Продолжает свою деятельность до нового созыва.

**– Расскажите о его организационных особенностях.**

– Общее руководство осуществляет председатель, два заместителя которого избираются большинством голосов от общего числа членов Молодежного парламента. Для повышения эффективности деятельности образован кенгаш, куда входят председатель, его заместители и председатели комитетов. Последних десять:

– по вопросам правовой грамотности молодежи и предупреждению преступности;

– по вопросам культуры и искусства;

– по вопросам физической культуры и спорта;

– по вопросам СМИ и инноваций;

– по вопросам духовности, просвещения и развития чтения;

– по вопросам науки и образования;

– по вопросам развития волонтерства;

– по здравоохранению, экологии и социальным вопросам;

– по вопросам занятости молодежи и развитию предпринимательства;

– по туризму и международным делам.

Ответственность за деятельность комитетов несут их председатели и заместители председателей. В работе используются современные информационные технологии, что, в свою очередь, обеспечивает качество, скорость и эффективность деятельности Молодежного парламента в целом.

**– Каков количественный и возрастной состав Молодежного парламента? Соблюдаются ли в нем принципы гендерного равенства и как учтена многонациональность нашей республики?**

– Всего 250 членов. Они избираются из представителей Республики Каракалпакстан, областей и города Ташкента и рекомендуются Республиканской комиссией.

Верхний возрастной предел членства в Молодежном парламенте – 30 лет. 69 человек в возрасте от 18–22 лет (27,7 процента), 94 человека в возрасте от 23–26 лет (37,8 процента) и 86 человек в возрасте от 27–30 лет (34,5 процента). Женщины составляют 25,3 процента – 63 человека. Гендерное равенство соблюдено.

В Молодежный парламент при Законодательной палате входят представители узбекской, каракалпакской, таджикской, татарской, кыргызской, казахской, туркменской, уйгурской и русской национальностей.

Юристы, политологи, экономисты, работники сферы науки и образования, информационных технологий, медицины, культуры, спорта, искусства, предприниматели и общественники – налицо и профессиональное разнообразие.

**– Что сделано Молодежным парламентом за год? Каким был его старт и каких успехов удалось добиться?**

– Год был достаточно насыщенным. Следует отдельно отметить, что на сегодняшний день комитеты Молодежного парламента закреплены за профильными комитетами Законодательной палаты.

Работа проделана немалая. К примеру, подготовлены и представлены обоснованные предложения примерно по 20 законопроектам, внесенным в Законодательную палату. В частности, по проектам законов «О внесении изменений и дополнений в Избирательный кодекс Республики Узбекистан», «О психиатрической помощи», «О Конституционном суде Республики Узбекистан», «О нормативных правовых актах», «О занятости населения» и другим.

Разработаны предложения, направленные на совершенствование законов Республики Узбекистан «О государственной молодежной политике», «Об информационно-библиотечной деятельности» и «О защите профессиональной деятельности журналиста» и, как ожидается, будут внесены в Законодательную палату.

Также Молодежным парламентом совместно с региональными управлениями Агентства по делам молодежи организованы контрольно-аналитические мероприятия в Республике Каракалпакстан, Джизакской, Ферганской, Бухарской, Наманганской, Ташкентской областях и городе Ташкенте. В результате нашли решение многие проблемы, с которыми сталкивается молодежь в регионах.



Кроме того, в образовательных учреждениях и органах самоуправления граждан организовано около 100 мероприятий: круглых столов, встреч и конференций для разъяснения широкой общественности сути принимаемых законов и проводимых в стране реформ.

**– Недавно прошел молодежный форум под девизом «Поддерживаю молодежь в парламенте»...**

– Узбекистан сейчас дышит воздухом парламентаризма: 22 июня начался Международный день парламентаризма длиной в целую декаду.

В связи с этим в Законодательной палате организован молодежный форум с участием генерального секретаря Межпарламентского союза Мартина Чунгонга. Молодые парламентарии имели возможность вступить в живой диалог со специалистом высочайшего класса, политиком с 40-летним стажем работы в данной системе, услышать оценку проводимых в Узбекистане реформ.

Почетный гость неоднократно отмечал приоритетные направления деятельности молодежных парламентов, поддержку юношей и девушек, выдвижение Узбекистаном предложений мирового значения по правам молодежи на международной арене.

**– Наверняка для повышения профессионализма парламентариев предусмотрено их обучение по специальным программам.**

– Все члены Молодежного парламента – образованные и одаренные представители подрастающего поколения. С его созданием продумана и система специальной подготовки. Законодательная палата организует разные мероприятия и семинары для повышения квалификации юношей и девушек.

К слову, в июне 2021 года в Академии государственного управления при Президенте Республики Узбекистан организованы трехдневные обучающие семинары по повышению политической и правовой грамотности молодых парламентариев. Участники ознакомлены с наиболее важными этапами законодательного процесса, в частности с подготовкой законопроектов, организацией их обсуждения, порядком рассмотрения палатами Олий Мажлиса; политическим и дипломатическим этикетом; национальным избирательным законодательством и международными избирательными стандартами. Состоялись специальные занятия по психологической подготовке управленческого персонала. По окончании семинара вручены сертификаты.



**– Молодежный парламент представляется ценным помощником для старших товарищей.**

– Мы с начала деятельности ставили перед собой задачу стать ближайшим помощником Законодательной палаты. Поэтому прикрепили каждого из молодых парламентариев к депутатам по выборным округам. Сегодня наши члены непосредственно участвуют в контрольно-аналитической деятельности депутатов, служат прочным мостом между молодежью и властью в решении проблем на местах.

Кроме того, оказываем непосредственную помощь Комиссии по вопросам молодежи Законодательной палаты в совершенствовании законодательства, участвуем в изучении общественного мнения, проводимого комиссией в регионах.

**– Могут ли юноши и девушки обратиться в Молодежный парламент с собственными инициативами и предложениями? Как это сделать?**

– Наша деятельность открыта и прозрачна. Можно обращаться через официальные страницы в социальных сетях: в Telegram – @Yoshlar_Parlamenti_official, в Facebook – Yoshlar parlamenti matbuot xizmati.

Кроме того, все комитеты Молодежного парламента при Законодательной палате имеют свои каналы, по которым подписчики могут получать необходимую информацию о проводимой работе.

**– Спасибо, что нашли в своем плотном графике время для беседы. Желаем Молодежному парламенту успехов во всех начинаниях, плодотворной творческой работы, помощников-единомышленников!**

– Спасибо! И вашей газете интересного освещения происходящих в стране событий.

**Беседовала**
**Мавлюда ПАЛВАНОВА**

## Молодежный парламент при Законодательной палате






# SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI JAMOASI

**Barcha yurtdoshlarimizni mamlakatimiz mustaqilligining 30 yilligi bilan samimiy qutlaydi!**
**O‘zbekiston yoshlariga ona yurtimiz ravnaqi yo‘lida ilm o‘rganish, kasb-hunar egallashdek barcha intilishlarida omadlar yor bo‘lishini tilab qoladi!**



R





***Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev raisligida o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida yurtimizda Voyaga yetmaganlar bilan ishlash bo‘yicha komissiyalar tugatilib, o‘rniga Bolalar masalalari bo‘yicha Milliy komissiya tashkil etilishi, bu komissiyaning asosiy maqsadi va vazifalari belgilab berilishi ta’kidlandi. Shuningdek, 16 ta “Mehribonlik uyi” va 4 ta “Bolalar shaharchasi” Xalq ta’limi vazirligi tasarrufidan chiqarilib, Milliy gvardiyaga o‘tkazilishi aytildi.***

# MEHR ULASHILGAN FAYZLI OQSHOM

Ota-ona mehridan mahrum va nogironligi bor bolalarni qo‘llab-quvvatlash, ularni jamiyatning faol a’zolari sifatida tarbiyalash barchamizdan jiddiy e’tibor va amaliy harakatlarni talab qiladi. Birorta bola “men yetim yoki nogironman”, deb o‘ksinmasligi, davlat va jamiyatimizning e’tibori va mehridan chetda qolmasligi kerak. Buning uchun ularni eng zamonaviy kasb-hunarga o‘qitish, bilim olishiga barcha sharoitlarni yaratib berish barchamiz uchun nafaqat vazifa, balki muqaddas burchimizdir.



Andijon davlat tibbiyot instituti professor-o‘qituvchilari buni chuqur anglagan holda Mehribonlik uylari bilan doimiy ravishda hamkorlikdagi ishlarni yo‘lga qo‘yish uchun ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni o‘tkazishni rejalashtirgan edi. Kuni kecha “Har bir bola – e’tiborimizda!” shiori ostida o‘tkazilgan tadbir ham boshlanayotgan xayrli ishlarimizning mantiqiy davomi, desak xato bo‘lmaydi.

Bolalarga berilayotgan e’tibor Yangi O‘zbekistonning ertasi bo‘lgan kelajagimiz davomchilarini tarbiyalash ekani nazarda tutiladigan bo‘lsa, ziyolilar zimmasida ulkan vazifalar turibdi. Prezidentimiz ta’kidlab o‘tganidek, “Mehribonlik uylari”da ta’lim-tarbiya jarayoni bilan bog‘liq ishlar qoniqarsiz ahvoldaligi, bitiruvchilarning ish bilan to‘liq ta’minlanmagani kabi muammolar bor ekan, bu sohada yechimini kutayotgan masalalar ko‘pligi va jiddiy munosabat nihoyat darajada zarur ekanligini anglash mumkin. Shu ma’noda ushbu muammolarning bartaraf etilishida hamda suyukli Andijonimizda qalbi o‘ksik bolalar bo‘lmasligi uchun fidoyilik bilan ishlash talab etiladi.

Institut o‘tkazgan tadbir beg‘ubor qalblarga bir olam sevinch ulashdi. Shu lahzada biz ham bolalik davrimizga bir lahza bo‘lsa-da, qaytgimiz keldi. Boshqacha aytganda, ular bilan dillashdik, ko‘zlar bilan yuraklarga mehr ulashdik.

Tadbirda talabalar qo‘g‘irchoq teatrining sahnaviy chiqishlari, milliy va zamonaviy raqslar, rasmlar tanlovi, ertak qahramonlari bilan uchrashuvlar har bir bolaning qalbiga bir olam ezgulikni hadya qildi desam, mubolag‘a bo‘lmaydi. Bolajonlarning ko‘zlariga boqib, har bir bola e’zoz-u ardoqqa, mehrga loyiq ekanligini his qildik!

**Mirzohidjon BOTIROV,**
**Andijon davlat tibbiyot instituti prorektori**

E’LON
“O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 5 ta tashabbusi loyiha ofisi” nodavlat notijorat tashkilotining 2019-yil 21-oktabrda 904-son bilan davlat ro‘yxatiga olingani to‘g‘risidagi Guvohnomasi hamda tashkilot Ustavi yo‘qolganligi sababli BEKOR QILINADI.

# HAYOTGA ISHQI BALAND PYOTR

## U davlatimiz rahbari bilan muloqotda bo‘ldi

***Ota-ona mehridan, oila davrasida suhbatlashib o‘tirishdan yiroq, qarindoshlar diydoriga mushtoq “Mehribonlik uyi” tarbiyalanuvchilari har qancha e’tibor ostida bo‘lmasin, ko‘nglida, baribir, o‘ksiklik, kemtiklik qolaveradi.***

Davlatimiz rahbari ota sifatida tarbiyalanuvchilar holidan shaxsan o‘zi xabardor bo‘lishni ma’qul ko‘rdi. Va faqat ulardan bayramlarda xabar olib qo‘yish kifoya emasligini ta’kidladi. U O‘zbekiston milliy gvardiyasi rahbari Rustam Jo‘rayevga “Mehribonlik uylari” tarbiyalanuvchilari bilan ishlash bo‘yicha vazifalarni belgilab berdi.

“Mamlakatimizdagi 16 ta “Mehribonlik uyi” va 4 ta Bolalar shaharchalari Xalq ta’limi vazirligi tizimidan chiqarilib, Rustam Jo‘raev boshliq Milliy gvardiyaga o‘tkaziladi. Buning uchun Milliy gvardiyada alohida qo‘mondon o‘rinbosari lavozimi joriy etilib, boshqarma tashkil etiladi. Milliy gvardiya bu bolalarimizning ta’lim tizimi, xususan, oliy ta’lim olishlarigacha tizimni ishlab chiqadi. Bunda qizlarga alohida, o‘g‘il bolalarga alohida yondashuv bo‘ladi. Oliy o‘quv yurtlarini bitirganlar Milliy gvardiyaga ishga olinishi ham yo‘lga qo‘yiladi,– dedi Prezident o‘z so‘zida davom etar ekan: – Bilasizlarmi, u bolalar, ayniqsa, qizlar o‘zi shundoq ham o‘ksinishda. Men ularning ko‘zlariga qaradim. Katta ishonch bor u ko‘zlarda. Har bir bolaga mehr beruvchi, ota-onalar mehrini beruvchi insonlarni topib berishimiz kerak”, – deya qo‘shimcha qildi.

Kuni kecha Shavkat Mirziyoyevning shu mavzuda o‘tkazgan videokonferensiyasi qizg‘in muloqotlarga boy bo‘ldi. Buxoro shahar 32-sonli “Mehribonlik uyi” tarbiyalanuvchisi Gorov Pyotr Denisovich Prezident bilan suhbatda bo‘ldi.

Pyotr Prezident bilan suhbatda o‘z orzulari, maqsadlari yo‘lida chekinmasligini bildirdi. So‘zlarini dadil bayon etdi.

Pyotr imkoniyati cheklangan bolalardan bo‘lsa-da, rassomlikka qiziqadi va chiroyli suratlar soladi. Qolaversa, uning kompyuter texnologiyalariga ham ishtiyoqi bor. U o‘z nutqida kelajakda dasturchi bo‘lish orzusi borligini aytib o‘tdi.

San’atga oshuftaligi esa qalbining tozaligi va samimiyatligini oshiradi. Pyotr hayotga intilishi baland ekanini



alohida ta’kidladi. Shavkat Mirziyoyev “Mehribonlik uyi”dagi shart-sharoit va tarbiyachilar haqida so‘raganda, u minnatdorligini aytib, tarbiyachilarni doimiy e’tiborli va mehribon, deya ta’rifladi. Shuningdek, tarbiyalanuvchilarning “Mehribonlik uyi”da stadion va suzish havzasi bo‘lishi orzusi borligini bildirdi.

Ha, Prezident bilan muloqot qizg‘in kayfiyatga sabab bo‘ldi.

“Mehribonlik uyi” rahbari Saida Rahimova Pyotr haqida bizga so‘zlar ekan, uni o‘z farzandidek yaxshi ko‘rishini, Pyotrning jismoniy kamchiliklari uning harakatchanligiga hech qanday to‘siq bo‘lmasligini bildirdi.

Pyotr Navoiyda tug‘ilgan. 2010-yildan buyon Buxorodagi 32-“Mehribonlik uyi” tarbiyalanuvchisi. U nafis mo‘yqalam sohibi, turli rasmlar chizadi, sport bilan shug‘ullanadi, bayram tadbirlarini tashkillashtiradi. She’riyat va adabiyotga qiziqadi. San’atni sevadi, qo‘shiqlar xirgoyi qiladi. Matematika fanidan ham yutuqlari bisyor. Qalbi kitobga oshuftaligi bois ham uning natijalari yuqori. Asosiy maqsadi unga g‘amxo‘rlik qilayotgan, o‘zi singari bolalarga qayg‘urayotgan ona Vatan xizmatini qilishdir. Shu yurt uchun fidokorona mehnat qilib, ko‘rsatilgan mehr-muruvvatga javoban munosib farzand bo‘lishni o‘z burchi sanaydi. Pyotr singari yuragi o‘ksik, ammo sofdil, imkoniyati cheklangan, biroq intilishi yuqori va harakatchan insonlar boshqalar uchun o‘rnak bo‘la oladi.

Ma’lumot o‘rnida, BuxDU filologiya fakulteti professor o‘qituvchilari va talabalari 32-“Mehribonlik uyi”da 5 tashabbus asosida tadbirlar va loyihalar tashkil qilishni rejalashtirgan. Tarbiyalanuvchilar holidan xabar olishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan.

Bu muassasada 82 nafar bola tarbiyalanadi. Shundan 30 nafari joriy yilda tarbiyalanuvchilar safidan chiqariladi. 26 nafar chin yetimga yil so‘ngiga qadar davlat tomonidan bepul uylar beriladi.

**Zulfizar MAVLONOVA,**
**BuxDU filologiya fakulteti talabasi**



Bu yil jonajon O'zbekistonimiz o'z mustaqilligining 30 yillik shonli sanasini keng nishonlash arafasida turibdi. Fursatdan foydalanib, barcha hamyurtlarimiz, shu jumladan, o'qituvchi va talabalarimizni biz uchun qadrli bo'lgan Mustaqillik ayyomi bilan samimiy qutlaymiz! Yurtimiz tinch, xalqimiz doimo omon bo'lsin!

# BUXORO MUHANDISLIK TEXNOLOGIYA INSTITUTI JAMOASI



*Taniqli Amerika yozuvchisi, jurnalist va adib Mark Tven 1835-yil Missuri shtatidagi Florida nomli kichik bir qishloqda huquqshunos oilasida dunyoga kelgan. Uning asl ismi Samuel Lenghorn Klemens, qisqacha qilib Sem deb chaqirishgan.*

*O'spirinlik va yigitlik yillarida darbadarlikda kun kechirgan, turli kasblar bilan shug'ullanib, tirikchilik o'tkazgan. Keyinchalik gazeta tahririyatlarida ishlagan. Folklor syujeti asosida yozilgan "Kalaverasdan chiqqan mashhur sakrovchi qurbaqa" asari (1865)da soddadil amerikaliklarning hazil-mutoyibasi va hayoti tasvirlangan. 1867-yilda Yevropa va Falastin bo'ylab sayohat qilgan. "Chet ellardagi soddadil kishilar" (1869) yumoristik ocherklar, "Toblanganlar" (1872) ocherklar kitoblariga kiritilgan asarlar ana shu sayohatlar taassurotlari asosida maydonga kelgan.*

*"Zarhal asr" (1873, CH.Uorner bilan hamkorlikda) romani moliyaviy-siyosiy korrupsiya haqida, "Yaltiroq asr" (1874) satirik romanida esa jamiyat illatlari hajv etiladi. Yumoristik va satirik yo'sinda yozilgan "Eski va yangi hikoyalar" (1875), "Tennesidagi jurnalistika" (1869), "Meni gubernatorlikka qanday saylashgani" (1870), "Qishloq xo'jaligi gazetasiga qanday muharrirlik qildim" (1870) singari to'plamlariga kirgan asarlarida Amerika hayotining turli qirralari tasvirlangan. "Geklberri Finning boshidan kechirganlari" (1884) romanida amerikacha hayotning yetuk ijtimoiy tanqidi, muruvvat va iltifotning manfaatparastlik va shafqatsizlik bilan yonma-yon mavjudligi ko'zga tashlansa, "Qirol Artur saroyidagi konnektikutlik yankilar" (1889) qissasida ijtimoiy qarama-qarshilik dunyosi tasvirlanadi. "Missisipidagi eski davrlar" (1875), "Missisipidagi hayot" (1883) kitoblari, "Shahzoda va gado" (1882), "Ovsar Vilson" (1894), "Tom Soyer chet elda" (1894), "Tom Soyer — josus" (1897), "Sirli notanish odam" (1916) kabi roman va qissalar muallifi.*

*Yozuvchining 1895-yildagi jahon bo'ylab sayohati "Ekvator bo'ylab" (1897) kitobida, shuningdek, pamfletlar turkumi, shu jumladan "Qorong'ida o'tirgan odamga" (1901), "Harbiy ibodat" (1923-yilda nashr etilgan) asarlarida aks etgan.*

*Quyidagi kichik hikoya esa yozuvchining hayotidan olingan desak ham mubolag'a bo'lmaydi.*



# G'alati o'xshashlik

Ancha yillar ilgari Nyu-York shtatidagi Solomonka vokzaliga keldim. Aslida, u yerdan boshqa bir poyezdga o'tib, uzoq safarga otlanishim kerak edi. Vokzalda odamlar karvoni zich-zich bo'lib borar, anglashimcha, ularning bari men minmoqni istayotgan poyezdga chiqishni istardi. Kassadan juda shoshilayotganimni, tezroq menga bilet topib berishini so'radim. U esa bosh irg'ib "yo'q" degan javob qaytardi. Olomon orasidan oralab zo'rg'a vokzal xizmatchisini topdim va undan men uchun oddiyroq bo'lsa ham bironta joy topib berishini talab qildim. U gapimni ham eshitmay, jiddiy yuzini battar buzgancha "Mumkin emas, vagonning hatto burchaklari ham odam bilan to'lgan, boshqa meni bezovta qilmang, iltimos!" degancha yuz burib ketib qoldi. Men o'zimni tahqirlanganday sezardim va yonimdagi hamrohimga o'zimga achingan holda gapirdim:

– Qaniydi, mening kimligimni bilsaydi bular...

Hamrohim so'zimni cho'rt kesdi:

– Asabingni buzma, vaziyatni to'g'ri tushunaylik, kel! – dedi. – Agar ular sening kimligingni bilgan taqdirda ham, ayt-chi, nima yordam bera olardi axir?!

Bu chorasiz vaziyatga biron-bir yechim topilishi mushkul, ha-ha, ancha mushkul. Vokzalda, bilet topish degan xayolimni to'satdan bir vagon biletchisining hayrat va mehr bilan boqib turgan nigohi buzib yubordi. U mendan sira ko'zini uzmasdi. Men ham unga qaraganim zahoti qiyofasidagi hol tushunarsiz darajada o'zgardi. U meni yonidagi mundirli bir ma'murga bosh burib ko'rsatar ekan, uning qulog'iga nimanidir pichirlardi, o'ylashimcha, ular men haqimda so'z yuritishmoqda. Birozdan keyin o'sha biletchi yuz-ko'zlaridan tabassum yog'ilib men tomon yaqinlasha boshladi.

– Sizga biron-bir ko'mak bera olamanmi, janob? – deya xushmuomala ohangda gapirardi. – Sizga bu poyezddan joy kerakmi?

– Ha, – dedim, quvonib ketganimni bazo'r yashirib. – Agar menga bironta vagondan joy topib bersangiz, mamnun bo'lardim juda. Qanday sharoitdagi joy bo'lishining farqi yo'q, mayli.

– Bizda katta oila kupesidan boshqa joy qolmagan, – u yanayam chiroyli ohangda davom etdi. – Yumshoq ikki yotoqli, ichida ikkita kreslosi ham bor, kupe tamomila sizning ixtiyoringizda! Qani, Tom, tezroq bo'l, janobning chamadonlarini vagonga ort, – yonidagi vokzal xizmatchisiga buyurdi.

So'ngra shlyapasini yechib mulozamat ko'rsatdi va yo'ldoshim bilan meni kupega kuzatib qo'ydi. Hamrohimga bu vaziyat haqida maqtanib bir-ikki so'z aytish uchun harakat qilardim, lekin vagonga chiqqan paytimizda fikrim butkul o'zgardi. Biletchi bizni kupega joylashtirdi va ta'zim qilgancha miyig'ida kulib so'radi:

– Hurmatli janob, yana nimadir xohlaysizmi? Aytgan narsangizni muhayyo qilishga tayyorman!

– Ozgina qaynagan suv topishning iloji bormi?

– Albatta, siz uchun darrov topib kelaman!

– Xo'p, rahmat! Lampa juda tepaga osilgan ekan. Mumkin bo'lsa, shu lampani yotog'imga yaqinroq joyga o'rnatishingizni istardim, oqshomda kitob o'qishni xush ko'raman, maylimi, iloji bo'lsa?

– Nega mumkinmas ekan, albatta mumkin, janob! Siz istagan narsani topib kelish bizning vazifamiz. Lampa siz aytgan joyga o'rnatiladi, butun kecha davomida o'chmaydi, bemalol kitob o'qishingiz mumkin. Janob, nima lozim bo'lsa ayting, shaxsan men buni chin dildan ado etaman! Kerak bo'lsa, butun vagonni ostin-ustun qilib bo'lsa-da, istaklaringizni bajaraman! – deganicha kupedan chiqib ketdi.

Yonimdagi hamrohimga qarab istehzoli jilmaydim:

– Ana, endi gapir, sen so'zimga shubha qilganding, ko'rdingmi, ular mening Mark Tven ekanimni bilgach, munosabatlari qanchalik o'zgardi, natija esa ko'z oldingda, shunday emasmi?

Hamrohim endi o'zini biroz erkin tuta boshladi. Men esa gapimga qo'shib qo'ydim:

– Senga ko'rsatilgan xizmatdan noroziliging bormi, nima istaysan oshna? Tortinma, aytaver! Bularning hammasiga alohida pul talab qilinmaydi, hammasi yolg'iz bilet puli evaziga.

Men shunday deb maqtanib turganimda eshik oldida yana o'sha miyig'ida jilmaygan yuz, sermulozamat ohangda gapiruvchi mehribon pravodnik paydo bo'ldi va so'zimni tasdiqlab gapira ketdi:

– Ha janob, men vokzalda paytim sizni bir ko'rishdayoq tanidim, ha, bir ko'rishdayoq, ishoning. Boshliqqa ham sizni o'zim ko'rsatdim!

– Shundaymi, minnatdorman, azizim?! – deya unga choy puli uzatdim. – Men kimman?

– Mister Mak Kallen – Nyu-Yorkning meri!

Bu gapdan keyin hamrohim menga, men unga anqayib qarab qoldik...

**Rahmat BOBOJON tarjimasi.**

# O'g'il farzand

Mahmud akaning uch qizi bor. Bu uch qaldirg'och otasi yonida bo'la turib ota mehridan mosuvo. Otasi Mahmud aka ayoli Iroda opani o'g'il farzand tug'magani uchun tinimsiz xo'rlar, qiynoqlarga solardi. Deyarli har kuni uyda janjal bo'lardi. Kecha kechqurun ham har doimgi janjalning biri sodir bo'ldi. Yana kaltaklar, baqir-chaqirlar...

Nigina singillarini bag'riga bosib tinimsiz yig'lar, qiz bola bo'lib tug'ilgani shunchalik fojia bo'lgani unga alam qilardi...

Yaratgan mehribon. Va nihoyat Mahmud aka xonadonida o'g'il farzand ham dunyoga keldi. "Kun kelib shu bola mening korimga yaraydi, suyanchim bo'ladi", deya el-yurtga to'y berdi. Uzoq kutib murodiga yetgani bois ismini Murod qo'ydi. Uning aytgani-aytgan, degani-degan bo'ldi. Otasi uni juda erkalatib yubordi.

Yillar o'tdi. Murod ulg'aydi. O'qidi, oliy ma'lumotli bo'ldi, yaxshi ishning boshini tutdi. Oila qurdi-yu alohida yashab, ota-onasini unutib qo'ydi. Bir kuni Mahmud aka o'g'liga qo'ng'iroq qildi.

– Assalomu alaykum, dada, rahmat, yaxshiman. O'zingiz ham yaxshimisiz? Oyim tuzukmilar? — dedi Murod yod bo'lib ketgan so'zlarni odatdagicha takrorlab.

– Ha, biz yaxshimiz bolam, katta odam bo'lib bizni unutib yubording chog'i, kelmay qo'yding, — deya ta'na qildi otasi.

– Dada, qaniydi vaqtim bo'lsa, siz ham meni tushuning axir, ishli odam bo'lsam... o'ynab yurganim yo'q-ku...

– Bilaman, ishing ko'p. Lekin opalaring o'zidan ortib, kunda-kunora xabar oladi-ku, sen ham opalaring qatori...

Murod otasining gapini bo'ldi:

– Qizlaringiz kelayotgan ekan-ku, shuning o'zi yetmaydimi sizga, dada!..

Suhbat uzildi. Bir chetda jimgina o'tirgan Iroda opa eriga o'ychan qaradi. Mahmud aka turmush o'rtog'idan ko'zlarini olib qochdi va ayni damda umri davomida unga bergan azoblari haqida o'ylab, og'ir xo'rsindi. Ular bir-birining ko'nglidan nelar kechayotganini tasavvur qilar, ammo na o'zini oqlashga, na tasalli aytishga so'z topa olardi...

**Sarvinoz KOMILOVA,**
**Romitan tumanidagi 23-IDUM o'quvchisi**




*Aziz yurtdoshlar! Barchangizni yaqinlashib kelayotgan ayyom – O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 30 yilligi bilan samimiy qutlaymiz! Mamlakatimiz mustaqilligini mustahkamlash, xalq farovonligini ta'minlash yo'lidagi fidokorona xizmatlaringizda ulkan zafarlar yor bo'lishini tilab qolamiz.*

**MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI JIZZAX FILIALI JAMOASI**

®

YOSHLAR OVOZI Молодежь Узбекистана

MUASSIS:
O'ZBEKISTON YOSHLAR ITTIFOQI MARKAZIY KENGASHI

BOSH MUHARRIR:
Hamza ABDULLAYEV

Gazeta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2020-yil 11-dekabrda № 0242 raqami bilan qayta ro'yxatdan o'tgan.

MAS'UL KOTIB:
Yelena KALININA
NAVBATCHI MUHARRIR:
Iqbol PARDAYEVA
MUSAHHIH:
Shahribonu RAHMATOVA
DIZAYNER:
Zafar RO'ZIYEV

Gazeta materiallari tahririyat kompyuter markazida terildi va sahifalandi.

TAHRIRIYAT MANZILI:
100083, Toshkent, Matbuotchilar ko'chasi, 32.

Telefonlar:
(71) 233-22-16.
(71) 236-79-95.

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida, A-3 formatda chop etildi.
Hajmi – 3 bosma taboq.
**Korxona manzili:** Buyuk Turon ko'chasi, 41.
**Indekslar: 203, 3203**
Bahosi kelishilgan narxda.
Buyurtma G-855
Adadi – 726
**Bosishga topshirish vaqti – 21.00**
**Topshirildi** – 20.00

1 2 3 4 5 6